

**DUDUQLANISHNI BARTAFAR ETISHDA KOMPLEKS METODLARNI  
QO'LLASHNING SAMARADORLIGI**

**Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi**

*Toshkent kiyo xalqaro universiteti Namangan filial talabasi, maxsus pedagogika  
Defektolog Logopediya yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotasiya:** *ushbu maqolada duduqlanish nutq kamchiligi bo'lgan bolalar bilan duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan metodikalar tahlili yoritilgan. Duduqlanishni yengishga zamonaviy kompleks yondashuv deganda duduqlanishning psixofizik holatining turli tomonlariga turli vositalar va turli mutaxassislar tomonidan terapevtik va pedagogik ta'sir tushuniladi.*

**Kalit so'zlar:** *Duduqlanish, korreksion ish bosqichlari, o'quvchilar, bo'shashtiruvchi mashqlar.*

Hozirgi kungacha duduqlanish muammosi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda duduqlanishni bartaraf etishda kompleks ta'sir o'tkazish zarurligi ko'rsatilgan. I.A.Sikorskiy tomonidan duduqlanishni bartaraf qilishda har tomonlama ta'sir ko'rsatish kompleks tizimiga aylandi. I.A.Sikorskiy duduqlanadigan insonlar bilan olib boriladigan bartaraf etish ishlari nafas olish, ovoz, artikulyatsiya, nutqning turli shakllari uchun mashqlar tizimini, duduqlanadigan insonni o'rab turgan muhitni o'zgartirish va uning ruhiyatiga psixoterapevtik ta'sir ko'rsatishni, duduqlanadigan insonni dori-darmonlar, fizioterapiya va harakat mashqlari yordamida davolashni o'z ichiga oldi [132]. V.I.Seliverstovning nuqtai nazaricha, duduqlanishni yengishga zamonaviy kompleks yondashuv deganda duduqlanishning psixofizik holatining turli tomonlariga turli vositalar va turli mutaxassislar tomonidan terapevtik va pedagogik ta'sir tushuniladi [132]. Olimning korreksiyalovchi ish dasturi asosan tibbiyot muassasalarida bolalar bilan ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu korreksion ish tizimida muallif 3 davrni belgilaydi: birinchi davr - tayyorlov bosqichi bo'lib bunda uy sharoitida sukut saqlash rejimini tashkillashtirish, sog'lomlashtirish tadbirlarini, umumiy motorikani rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirishni, tortishishlar kuzatilmaydigan nutq turlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi davr bolalarda til vositalarini rivojlantirish, bilish jarayonlarini rivojlantirish, yangi nutqda ravon so'zlashish ko'nikmasini turli nutq shakllarida mustahkamlashni o'z ichiga oldi. uchinchi davr-yakunlovchi bosqichida kundalik faoliyatda erkin, ravon nutq ko'nikmalarini mustahkamlash amalga oshiriladi.

Shu maqsadda bolalar bilan suhbatlar, hikoyalar, rolli va ijodiy o'yinlarni o'ynashdan foydalaniladi. A.V.Yastrebova boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda duduqlanishni namoyon bo'lishini o'rgangan va duduqlanadigan o'quvchilarni yuqori va me'yordagi nutqiy rivojlanishga ega bo'lgan duduqlanadigan o'quvchilar hamda nutqning fonetikfonematik, leksik va grammatik rivojlanishi yetarli shakllanmagan nutqning to'liq

rivojlanmaganligi elementlari bo'lgan duduqlanadigan o'quvchilarga ajratgan [105]. A.V.Yastrebovaning fikriga ko'ra, boshlang'ich sinf duduqlanadigan o'quvchilarda nutqning axborot va tartibga solish, axborotni idrok etish, qayta ishlash va uzatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tartibga solishdan iborat. Olim duduqlanuvchi o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion bartaraf etish ishlarini uch bosqichga ajratadi [105]. Birinchi bosqichning asosiy vazifasi duduqlanadigan o'quvchilarida shaxslararo muloqot jarayonida ma'lumotni yetarli darajada o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishdir. O'quvchilarda muloqotni murakkablashtirishning besh bosqichi mavjud bo'lib, har bir bosqich uchun asosiy vazifa, aloqa, nutq, xatti-harakatlarining modeli hamda yordamchi vositalar tanlangan. Ikkinchi bosqichning asosiy vazifasi o'quvchining jamoaviy faoliyat shakllarida yetakchi sifatida harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydigan o'qitish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Uchinchi bosqichning asosiy vazifasi olingan ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay olish hamda erkin muloqotga kirishish ko'nikma va malakalarini mustahkamlashdan iborat. V.A.Gilyarovskiy tomonidan bolalarda duduqlanishni davolash zaruratiga asos solingan bo'lib, olim bolalar bilan "o'yin maydonchasi" yoki yarim statsionar sharoitida ishlashni taklif qilgan [35].

N.A.Vlasova va E.F.Rau birinчилardan bo'lib, maktabgacha yoshdagi duduqlanadigan bolalar bilan olib boriladigan korreksiyalovchi ish dasturida kompleks yondashuv tamoyiliga asoslangan holda ish tashkil etilishini ta'kidlagan: - bolani har tomonlama tekshirish; -bolani ruhiyati tanasi va nutqidagi tutilishlar bilan ishlash; -bolaga berilayotgan topshiriqlarni soddadan murakkabga yondashuvi asosida bosqichma-bosqich nutqni ravonlashtirishga erishish; Duduqlanadigan bolalar bilan olib borilgan korreksion mashg'ulotlar bosqichmabosqich murakkablashtirib borilgan. Korreksion ishlar davomida duduqlanadigan bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri, mushaklarni bo'shashtirish hamda tanada ritm tuyg'usini tarbiyalash mashqlari olib borilgan. Ta'kidlash kerakki, N.A.Vlasova va E.F.Rau tomonidan taklif qilingan logopedik korreksion ish bosqichlari hozirda kunda ham turli yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashda faol foydalanilmoqda [130]. R.E.Levina duduqlanadigan bolalarda nutqning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish g'oyasini ilgari suradi va uning izdoshlari (S.A.Mironova, L.F.Spirova, N.A.Cheveleva, A.V.Yastrebova va boshq.) duduqlanuvchi bolalarga psixologik va pedagogik ta'sirning yaxlit tizimini ishlab chiqdi [74]. N.A.Cheveleva duduqlanadigan bolalar bilan olib boriladigan korreksiyalovchi bartaraf etish ishlari qo'l mehnati asosida tashkillashtirish lozim ekanini ta'kidladi. Muallif bolaning izchil nutqiy rivojlanishi vaziyatli nutqdan kontekstga o'tish orqali amalga oshiriladi degan fikrni ilgari suradi. N.A.Cheveleva bolalar uchun tanlangan nutqiy materialni vizual, yengil bayon qilish shakllaridan mavhum, kontekstli bayonotlarga bosqichma-bosqich o'tish bolalarda amaliy faoliyat yoki aniq vizual vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan nutqiy sharoitida duduqlanishning zaiflashishi kuzatilgan [105]. S.A.Mironovanning metodologiyasi duduqlanuvchi bolalarda ravon va erkin nutq ko'nikmalarini tarbiyalash tizimini o'z ichiga olgan.

Muallifning fikriga ko'ra, o'yinlarda nafaqat verbal va noverbal jarayonlar rivojlanadi, balki shaxslararo munosabatlarning ijtimoiylashuvi, xulq-atvor va shaxsni to'laqonli shakllanishidagi og'ishlar korreksiyalanadi. G.A.Volkovning korreksiyalovchi ish dasturi quydagi bosqichlarni o'z ichiga olgan: birinchi bosqichda logopedik mashg'ulotlardan tashqarida bolalar nutqini cheklash, tana mushaklarini bo'shashtirish, nutqiy nafas ustida ishlash, biloish jarayonlarini rivojlantirish, til vositalarini rivojlantirish ishlari olib borilgan. Ikkinchi bosqichda logopedik mashg'ulotlar jarayonida asosiy e'tibor logopedni nutqiga taqlid qilgan holda logoped bilan birgalikdagi talaffuz qilish ko'nikmalarini tarbiyalash ishlari olib borilgan. Uchinchi bosqichda bolalar logoped bilan birgalikdagi nutqdan logoped ketidan takrorlash bosqichiga o'tganlar. Bu bosqichda bolalar gapdagi ohang hissini, qo'shimcha nafas olish va ravon so'zlashishga o'rganganlar. To'rtinchi bosqich - savol-javob nutq shaklida nutqning prosodik tarkibiy qismlarini rivojlantirish, uzoq muddatli nafas chiqarishni tarbiyalash, iboraning uzluksiz bir nafasda talaffuz qilishni tarbiyalash, to'g'ri pauza, sur'at, ritm, ohangli dialogik nutq ustida ishlash, tovushlar talaffuzini tuzatish, nutqning leksik va grammatik tomonini rivojlantirishga qaratilgan. Beshinchi bosqichda bolalarda ravon nutqda mustaqil so'zlashish ko'nikmalari matn, voqealarni, hikoyalarni, ertaklarni qayta hikoya qilish yordamida tarbiyalangan.

Oltinchi bosqichda bolalarda mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish yordamida erkin rovon nutqda so'zlashish ko'nikmalari mustahkamlangan [51]. Yakunlovchi bosqichda spontan nutq shaklida modellashtirilmagan vaziyatlarda ravon nutqni turli xatti-harakatlar bilan birlashtirish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda duduqlanuvchi bolalarning otaonalariga ravon nutq ko'nikmasini mustahkamlashda ko'maklashish muhim rol o'ynaydi. Olima duduqlanishni bartaraf etishda qo'l mehnati orqali ishlash jarayonida faqat mustaqil nutqda vaziyatli va kontekstli nutqni tarbiyalash zarur deb hisoblaydi. Muallif duduqlanishni bartaraf qilishga qaratilgan nafas olish, ovoz va boshqa mashqlardan foydalanishni zarur deb bilmaydi [106]. Duduqlanishni bartaraf etish uslublari avvalo yoshga oid xususiyatlarga bog'liqligi A.Vlasova tomonidan birinchi marta amaliyotda o'rganildi [130]. U duduqlanuvchi bolalar bilan o'tkaziladigan korreksion ishda 7 ta bosqichni ko'rsatib bergan. Hozirgi kunga kelib ham, duduqlanishni bartaraf etish usullarining barchasi uchun A.Vlasova tomonidan yaratilgan korreksiyalovchi ish bosqichlari poydevor hisoblanib, shu bosqichlar asosiga qurilgani hech kimga sir emas. Ye.F.Rau maktabgacha yoshdagi bolalarining nutqini tarbiyalashda logopedik ishlarni 3 bosqichda olib borishni tavsiya etadi [130]. I bosqich. O'rganilgan iboralar, she'rni talaffuz qilishda birgalikdagi va aks sado nutqi mashqlari olib boriladi. She'rni ifodali, yoddan aytish keng qo'llanadi. II bosqich. Rasm mazmunini savollar yordamida so'zlash yoki logoped tomonidan o'qilgan ertak, hikoyani savollar yordamida bayon etish. III bosqich. Yakuniy bo'lib, o'yin, mashg'uloti, suhbat jarayonida atrofdagilar bilan muloqot qilish jarayonida o'z nutqida erishgan ravon nutq malakalarini mustahkamlaydi. Katta yoshdagi insonlarda duduqlanishni bartaraf etish muammosi I.A.Povarova tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, duduqlanadigan insonlar bilan olib boriladigan korreksiyalovchi logopedik ish jarayoni uch bosqichni o'z ichiga olgan. Logopedik korreksiyalovchi ish

bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga olgan: - bo'shashtiruvchi mashqlar va tana muvozanati ustida ishlash; - nutqiy nafasni shakllantirish; - artikulyatsiya (talaffuz) a'zolari harakatchanligini oshirish; - nutq jarayonida ovozdan to'g'ri foydalanish; - ruhiyatdagi ikkilamchi buzilishlar ustida ishlash; - akustik-vizual diqqat ustida ishlash; - nutqning leksik va grammatik tomonini rivojlantirish; - motor ko'nikmalarini rivojlantirish; - nutqsiz muloqot qilish shakllarini rivojlantirish; - nutqdagi tovush talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etish. Birinchi bosqich tayyorgarlik bosqichi bo'lib bu bosqichda duduqlanadigan katta yoshdagi insonlarga mashg'ulotdan tashqari vaqtda nutqiy muloqotni cheklash hamda noverbal muloqot qilish shakllari pantomimik o'yinlar yordamida noverbal muloqotning imo-ishora, yuz ifodasi, ko'z qarashlari yordamida mustahkamlangan.

Ikkinchi bosqich asosiy bosqich bo'lib, duduqlanadigan nutqdagi mavjud tutilishlarni olib tashlash hamda yangi nutqda turli nutqiy vaziyatlarda so'zlashish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga olgan. Yakuniy uchinchi bosqichda duduqlanadigan katta yoshdagi insonlarda hayajonni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarda ular tomonidan egallangan yangi nutqda so'zlashish ko'nikmasini mustahkamlash ishlari olib borilgan. L.R.Muminova, N.Raxmonqulova o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida duduqlanishni bartaraf etishning pedagogik imkoniyatlarini logopedik o'yin, logopedik ritmika mashg'ulotlarining korreksion ishdagi ahamiyatini amaliy tomondan uslubiy tavsiyalar orqali yoritib berdi. Jumladan, L.R.Muminova o'smirlar va kattalarda duduqlanishni ikki tillilik sharoitida olib borgan ilmiy izlanishlari ma'lum nazariy va amaliy natijalarga erishishga imkon berdi. Nazariy jihatdan, o'zbek tilida so'zlashuvchi o'zbek o'smir va katta yoshdagi insonlar orasida duduqlanishning namoyon bo'lishi rus tilida so'zlashganida ham duduqlanishning namoyon bo'lishi bilan bir xil ekani aniqlandi. O'rganish tajriba materiallari ikkinchi tilda ham duduqlanadigan o'smir va katta yoshdagi insonlar ikkinchi til vositalarini mukammal egallay bilmasliklari duduqlanishni kuchaytiradi degan fikrni ilgari surganlar. O'zbeklar uchun rus tilini egallash millatlararo muloqot tilini bilish zarurati ijtimoiy ahamiyatga ega ekani sababli, muammoning amaliy yechimi ikkalasini birlashtirishdan ya'ni ikkinchi tilni egallash hamda duduqlanishni bartaraf qilishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni birlashtirish bo'lgan. Modifikatsiya tilni hisobga olgan holda duduqlanadigan o'smir va katta yoshdagi insonlarlarda duduqlanishni bartaraf qilish korreksion rivojlantiruvchi ish dasturlari 7-10-sinflar uchun amaldagi rus tili dasturi materiallari omil bo'lib hisoblangan [86]. O'smirlar va kattalarda duduqlanishni ikki tillilik sharoitida bartaraf etish bo'yicha logopedik mashg'ulotlar tizimi uch bosqichni o'z ichiga olgan: tayyorgarlik, kommunikativ mashqlar va yakunlovchi bosqich. Tayyorgarlik bosqichida duduqlanishni bo'lgan o'smir va kattalar bilan suhbat davomida duduqlanishda kuzatiladigan qiyinchiliklar, uni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar hamda duduqlanishdan xalos bo'lish va ravon nutqda tutilishsiz erkin muloqot qilish ish dastirining rus tilidagi istiqbol ish rejasi tanishtirilgan. Rus tilida muloqot qilishning asosiy qoidalari bayon etilgan, mashg'ulotdan tashqari vaqtda nutqni qisman cheklash zarurati ta'kidlangan, qat'iy kun tartibiga rioya qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan, nutq ustida mustaqil ishlashning ahamiyati tushuntirilgan. Ikkinchi bosqichda

duduqlanadigan o'smir va kattalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ishlari olib borilgan. Ikkinch bosqichning asosiy vazifasi rus tilida sekin-asta kengaytirilgan va murakkab nutq materiallari va mashqlar turlarini o'zlashtirishdan iborat bo'lgan. Uchinchi – yakunlovchi bosqichda duduqlanadigan o'smir va kattata insonlarning rus tilida ravon nutqda so'zlashish ko'nikmasini amaliyotda qo'llash nazarda tutilgan. Agar duduqlanuvchilar taklif qilingan mavzu yuzasidan yoki o'zlari tanlagan mavzuda erkin suhbatlashishni xohlasalar hamda qiziqarli voqealar va faktlar haqida guruhdoshlari va logoped bilan suhbatlashish ularga oson va yoqimli bo'lsa, nutq amaliyoti yaxshi tashkil etilgan deb hisoblangan.

Duduqlanadigan o'quvchilar nutqining vaqtinchalik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha yuqoridagi natijalarni tahlil qilib, duduqlanadigan o'quvchilarda nutqning ravonligi xususiyatlarining buzilishi polimorfik va o'zgaruvchan bo'lib, nutqning tezlashishi yoki sekinlashishi va aritmiyada namoyon bo'ladigan xususiyatlarga ega; logoped tomonidan olib boriladigan mashg'ulotlari natijasida duduqlanadigan o'quvchilarda nutq tezligi o'zgaradi, shuning uchun nutqni boshqarish mumkin bo'ladi va logopedlar ko'p hollarda duduqlanuvchilar nutqini ravonlashtirishlari mumkin, - deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida logopediya shaxobchasi sharoitida duduqlanishni bartaraf etish aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ta'minlovchi korreksiyalovchi, logopedik, rivojlantiruvchi ish tizimlar majmuasidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining duduqlanishini bartaraf etishning samaradorligi yuqori bo'lishi uchun logopediya shaxobchasi sharoitida ta'lim jarayoni samaradorligini logopedik texnologiyalar yordamida oshirish tadqiqotimizning asosiy vazifasi etib belgilandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аюпова М.Ю. Преодоление фонетико-фонематической недостаточности у детей узбеков старшего дошкольного возраста: автореферат дис. кандидата педагогических наук. 13.00.03 / Моск. пед. гос. ун-т. – Москва, 1992. - 16 с.

2. Барабанов Р.Е. Основы логопедии: афазия, заикание, ринолалия. Учебное пособие для студентов / R.: VDM Publishing, 2019. – 69 с. ISBN 978-620-2-32094-8 8. Беглова.О.А. Коммуникативно-речевые технологии в системе устранения заикания у подростков и взрослых. МИР специальной педагогики и психологии. Научно-практический альманах. Выпуск 7 – М.: ЛОГОМАГ, 2017. Стр.

3. Беглова О.А. Коррекция психофизических проявлений в структуре заикания подростков и взрослых средствами танцевально-двигательных техник. 13.00.03 - коррекционная педагогика. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. 2009.

4. Белякова Л.И., Дьякова Е.А. Третий международный конгресс по проблеме заикания // Дефектология. - 2001. № 1. - С. 75-76.